

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARНИ RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARNING AFZALLIKLARI

Ergasheva Sarvinoz Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2 – bosqich talabasi

E-mail: [ergashevasarvinoz72@gmail.com](mailto:ergashevasarvinoz72@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar orqali ta'lism-tarbiya olishi, tamoyillar orqali shakllanishi, bolalarning qobiliyatları va imkoniyatlar, shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar haqida tushuncha berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** rivojlantiruvchi markazlar, shaxs, tamoyil, model, ta'lism, qobiliyat, imkoniyat.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lism tizimining mazmunini yangilash ta'lism-tarbiya jarayonining individuallashuvi, pedagogning bolalar bilan shaxsga yo'naltirilgan muloqotini ta'minlashni nazarda tutadi. Bugungi kunda bolalar maktabgacha ta'lism tashkilotiga moslashtirilmaslik kerak, aksincha maktabgacha ta'lism tashkiloti har bir bola uchun uning qobiliyati, imkoniyati, ruhiy va jismoniy holatlarini e'tiborga olgan holda zarur sharoitlarni yaratishga intilishi kerak. Har bir bola shaxsining betakrorligi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash pedagoglarga ta'lism-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida rivojlantirish markazlarini yaratish ta'limiyy-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Guruh xonasida rivojlantirish markazlarini yaratishda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olib, bu o'z navbatida har bir bolaning emotsiyal holatini yaxshilaydi, ularning ijobjiy his-tuyg'ularini, dunyoga, odamlarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabat kompetensiyalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlikda bo'lish kabi maktabgacha ta'lism maqsadlari amalga oshiriladi.[1]

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatları va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'lismning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.[2]

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istiklari, niyatları, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lism jarayoni ta'lism "bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish" modelidan, "bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lism jarayonida faol ishtirok etadigan" modelga yo'naltirilishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lismning maqsadi: bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat.[5] Shaxsga yo'naltirilgan ta'lism modeli – bizning ta'lism

tizimimizga tanish bo'lgan bolaga ta'lif va intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lishdir. Bola kattalar singari jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lganligi sababli uning huquqlarini tan olish, pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" emas, balki yonma – yon va birga olishni anglatadi.[3]

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir.[6] Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim rivojlanish markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istiklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish modelidan, bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan modelga yo'naltirilishi kerak.[4]

**XULOSA:** Tarbiyachilar barcha yosh guruhalarda rivojlanish markazlariga rahbarlik qilar ekanlar, bolalarni maqsadli yo'naltirib, ularni kuzatish va nazorat qilish talab etiladi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchi va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning histuyg'ularini va xatti – harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanish ta'lim asosida olib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni mifik ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf odatlarga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.X.Xodjayev. umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.Sanostandart/2017y.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022 yil
3. R.Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" 1993 yil
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent 2006 yil
5. Sh. Sodiqova Maktabgacha pedagogika Toshkent 2019 y. 6. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo'llanma Toshkent. 2020 21-bet 7.
6. Aliqulova M.Sh. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bola imkoniyatlari poydevoridir. Oriental renaissance: innovate, educational, natural and social sciences 1/9 2021, 459464-bet